

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / SENTABR /
9-SON, II-QISM

Google
scholar

RePEc
RESEARCH PAPERS
IN ECONOMICS



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
II-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA MUAMMOLI KREDITLARNI BARVAQT ANIQLASHNING SUN'YI INTELLEKTGA ASOSLANGAN MENEJMENT MODELINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	14
Alovuddin Jamolov	
YASHIL TRANSPORT: BARQAROR RIVOJLANISH UCHUN IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR.....	19
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAMARQAND VILOYATIDA MAHALLIY BUDJETLARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	25
Uzakova Kamola Bexzodovna	
O'ZBEKISTONDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI	31
Xolmurodova Moxichehra Dilmurodovna	
THE IMPACT OF FOREIGN DIRECT INVESTMENT ON ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FROM AN ARDL BOUNDS TESTING APPROACH (2000–2024)	36
Ortikov Olloberdi Muzaffar o'g'li	
Rajabova Malika	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARI	44
Rustamova Dildora Jamshid qizi	
THIS STUDY EXAMINES BEIJING'S EXPERIENCE IN PROMOTING CROSS-BORDER E-COMMERCE IN TASHKENT FROM THE PERSPECTIVE OF REGIONAL COOPERATION	50
Wang Jiahao	
DORI VOSITALARIGA OID AXBOROTLARNI BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOTLARIDA AKS ETTIRISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	58
Yodgorov Xushvakt Mansurovich	
AGROSANOAT MAJMUINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA JAMLANMA DARAJA VA KANALLARARO TAKRORLANISHNI O'LCHASH METODIKASI: «YASHIL» YO'NALISHLAR MISOLIDA	63
Xudaynazarov Bekzod Akramovich	
ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА АКТИВОВ И СТАБИЛЬНОСТИ КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	69
Баймуратова Зина Акилбековна	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYAVIY MUHITNI YANADA RIVOJLANTIRISH VA INFLYATSIYANING SALBIY OQIBATLARINI KAMAYTIRISH YO'NALISHLARI	75
Niyozov Asad Qosimovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNING NAZARIY EVOLYUTSIYASI VA UNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLARI	80
Afenov Nursultan Nugmatillayevich	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND COMPETITIVE ADVANTAGE IN HIGHER EDUCATION: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES.....	86
Boynazarova Iroda Mahmud qizi	
GREEN BONDS IN UZBEKISTAN: OPPORTUNITIES, INSTITUTIONAL DEVELOPMENT AND BARRIERS TO SUSTAINABLE FINANCE	92
Umarova Zulaykho Tursunovna	
YASHIL INVESTITSIYALARNI JALB QILISH ORQALI BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI	97
Teshayev Zafarbek Zokirovich	



RAHBARLIK LAVOZIMLARIDA XOTIN-QIZLAR ULUSHI VA MAVJUD STROTEPLAR TAHLILI	103
Abduraxmonova Feruzabonu Abduraxmon qizi	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND COMPETITIVE ADVANTAGE IN HIGHER EDUCATION: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES.....	109
Boynazarova Iroda Mahmud qizi	
KATTA HAJMLI IQTISODIY MA'LUMOTLAR (BIG DATA) SHAROITIDA EKONOMETRIK BAHOLASH USULLARINING NAZARIY TRANSFORMATSIYASI.....	115
Zarikeyeva Miyasar Maratovna	
EFFECTIVE MECHANISMS FOR MANAGING ORGANIZATIONAL ECONOMIC SUSTAINABILITY IN THE PROCESS OF JOB OPTIMIZATION.....	121
Odilov Jakhongir Akram ugli	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI BANK KREDITLARI ORQALI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	128
Abdullayev Ahrorjon Akmaljon o'g'li	
ZARGARLIK XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA PERFORMANCE MARKETINGDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	134
Azizova Roxila Baxodir qizi	
IQTISODIYOT NAZARIYASI: NAZARIY ASOSLARDAN AMALIYOTGACHA BO'LGAN IQTISODIY JARAYONLARNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	139
Xamdamov Amriddin Xamdam o'g'li	
УПРАВЛЕНИЕ И ПРИНЯТИЕ РЕШЕНИЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ.....	145
Тарават Абдул Салам	
ПОВЕДЕНЧЕСКИЙ ПОДХОД В ГОСУДАРСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ РАЗВИТИЕМ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА: ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ	152
Икрамова Нодира Бурхон кизи	
STOCK MARKET DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN, 2023–2026: INSTITUTIONAL REFORM, PRIVATIZATION, AND EVIDENCE FROM PRIMARY EXCHANGE MICRODATA.....	159
Alekperova Dilshodakhon	
Toshkentov Kuvonchbek	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA TIJORAT BANKLARINING O'RNI.....	167
Bozorov Ilyos Isomiddinovich	
TIJORAT BANKLARINING KAPITAL BAZASINI MUSTAHKAMLASHDA ZAMONAVIY MOLIVAVIY INSTRUMENTLARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	173
Abduraimova Fazilat Hikmatulla qizi	
TIJORAT BANKLARI MOLIVAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA YANGI KONSEPTUAL VA USLUBIY YECHIMLAR: SIRKULYAR IQTISODIYOT TAJRIBASI.....	180
Otajanova Shahnoza Shuhratovna	
BANKLARDA RISKLARNI BOSHQARISH, DAROMAD VA NATIJADORLIKNI OSHIRISH	185
Jo'rayev Bekzod Bahodir o'g'li	
INKLYUZIV TA'LIM MUHITINI TA'MINLASHDA UMUMTA'LIM MAKTABLARI MENEJMENTINI HUDUDIY KLASSTERLASH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH MODEL: TASHKILIY-BOSHQARUV MEKANIZMLARI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI	192
Rajapova Guldona Usman qizi	
FERMER XO'JALIKLARIDA MOLIVAVIY NATIJALARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH: FOYDA SIFATI VA BARQARORLIGINI BAHOLASH YONDASHUVLARI	198
Rashidov Baxadir Yusupovich	
HUDUDLAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INVESTITSIALARNING ROLI.....	203
Sapayeva Fazilat Norbayevna	



ERKIN IQTISODIY ZONALARDA EKO-SANOAT PARKLARINI TASHKIL ETISH VA EKOLOGIK TADBIRKORLIKNI BAHOLASH USULLARI	207
Turg'unova Tursunoy Maratovna	
TIJORAT BANKLARIDA JISMONIY SHAXSLARNI KREDITLASHNING TASHKILIY VA HUQUQIY ASOSLARI	212
Aminova Mehriniso Erkinjonovna	
BARQAROR RIVOJLANISH (ESG) PRINSIPLARINING KOMPANIYA BRENDI QIYMATI VA JOZIBADORLIGIGA TA'SIRI	217
Dilfuza Matisakova	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLIVAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ORQALI MOLIVAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH	224
Raximova Lolaxon Avazovna	
MEHNAT INTIZOMINING KORXONALAR FAOLIYATINING IQTISODIY SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	228
Azizova Sayyora Xamidullayevna	
MINTAQA IQTISODIYOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA TIBBIY TURIZM XIZMATLARINING EKONOMETRIK BAHOLANISHI.....	237
Yusupova Mexribon Uktamovna	
KICHIK SANOAT ZONALARIDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISHNING RAQAMLI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISH.....	245
Jo'rayev Po'latjon Komiljon o'g'li	
MAKTABGACHA TA'LIM XIZMATLARI SOHASIDA KICHIK BIZNES RAQOBATBARDOSHLIGINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	251
Madaminova Feruza Tursunboy qizi	
YASHIL INVESTITSIYALARNING MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	259
Raximova Shaxnoza Xamzayevna	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA TAYYOR MAHSULOTLAR EKSPORTINI RAG'BATLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA TA'MINOT YO'LLARI.....	263
Esanov Yusufjon Dilmurod o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT: MOHIYATI, XUSUSIYATLARI VA O'ZBEKISTONDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	267
Sultonov Shahzod Shavkat o'g'li	
O'ZBEKISTON BANLARINIGKING YASHIL BANK MAHSULOTLARI TASHKIL QILISH MEXANIZMLARI VA ULARNING BANK IQTISODIY SAMARADORLIGINI SALBIY TA'SIR QILMAGAN HOLATDA MAHSULOTLARINING MOLIVAVIY BARQARORLIK TA'MINLASH YO'LLARI.....	275
Nuriddinov Murodjon Nuriddin o'g'li	
JAHON IQTISODIYOTINING GLOBALLASHUVI SHAROITIDA MILLIY EKSPORT SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNING MARKETING MEXANIZMLARI.....	281
Jumayeva Zamira Bustonovna	
MARKAZIY OSIYO UCHUN GEOSIYOSIY RISK (GPR) INDEKSINI ISHLAB CHIQISH	285
Qodirova Laylo Otabekovna	
BIRLASHGAN ARAB AMIRLIKLARI STARTAP EKOTIZIMINI BOSHQARISH MODELI VA O'ZBEKISTON UCHUN SABOQLAR.....	289
Elmurod Sodiqov Shomurod o'g'li	
INTEGRATSIYALASHGAN HISOBOTNI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI.....	295
Abduvaliyev Zafar Mahmudovich	
AVTOMOBIL BUTLOVCHI QISMLAR ISHLAB CHIQRISHDA MAHALLIYLASHTIRISH VA TA'MINOT TARMOG'INI DIVERSIFIKATSIYALASH SAMARADORLIGI.....	301
Asadov Elyorbek Kandiayrovich	



INFRATUZILMA TADBIRKORLIK FAOLIYATI UCHUN ZARUR OBYEKTAR, INSTITUTLAR, RESURLAR VA XIZMATLAR MAJMU'I.....	307
Rustamov Sultonbek Bekzadovich	
TURISTIK XIZMATLAR SOHASIDA INVESTITSION JOZIBADORLIK PARADOKSLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	315
Ollanazarov Bekmurod Davlatmurotovich	
"YASHIL" SANOAT SIYOSATINI BAHOLASHNING XUSUSIYATLARI.....	323
Ismatulloeva Madinabonu Fozil qizi	
BUDJET TASHKILOTLARIDA BUDJET MABLAG'LARI HISOBI VA ULARDAN FOYDALANISH USTIDAN ICHKI AUDITNI TAKOMILLASHTIRISH.....	330
Murtozayeva Xusnora Erkin qizi	
KORXONANING BREND EKOTIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	335
Sa'dulloev Habibullo Ibodullo o'g'li	
AGRAR VA SANOAT TARMOQLARIDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH ORQALI YANGI ISH O'RINLARINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	341
Bobojonov To'liqinbek Maxmud o'g'li	
O'ZBEKISTONDA SANOAT KORXONALARINING ENERGIYA TA'MINOTIDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING O'RNI VA ISTIQBOLLARI.....	347
Jo'ramurodova Feruza Mardon qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SANOAT KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH VA INVESTITSION STRATEGIYALARNI BOSHQARISH.....	353
Nazarova Nigora Yusufovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARINING AKADEMIK FAOLIYATINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING IQTISODIY-TASHKILY ASOSLARI.....	361
Raximbayev Musobek Komiljon o'g'li	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINING SHAKLLANISH TENDENSIYALARI, HUDUDLARARO FISKAL TAFOVUTLAR VA HUDUDIY SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI MUAMMOLARINING TIZIMLI TAHLILI.....	367
Azamjonov Ulug'bek Usmonjon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISH TIZIMINING EVOLYUTSION RIVOJLANISHI VA ZAMONAVIY XUSUSIYATLARI.....	377
Erxanov Muxammadjon Absayitovich	
OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI EKSPORTGA YO'NALTIRISHDA MARKETING STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH.....	382
Ilhamova Zarnigor Po'latjon qizi	
MAMLAKATIMIZDA TRANSPORT INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI.....	386
Qo'ziboev Umarbek Ulug'bekovich	
JUFT KORRELYATSIYA VA REGRESSIYA TAHLILI YORDAMIDA INVESTITSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI ANIQLASH.....	390
Muxtorova Shohida Negmat qizi	
TURISTIK INNOVASION LOYIHALARNI KRAUDFANDING ASOSIDA MOLIYALASHTIRISH MODELI.....	397
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDIT AMALLARINING NATIJADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI MUAMMOLAR.....	403
Yuldashev Xurshidbek Mamirjonovich	
MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA HISOBOTNI TUZISH VA TAQDIM ETISH HAMDA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	408
Xalilov Bahromjon Bahodirovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	412
Masharipova Maksuda Becnazarovna	



COOPERATION BETWEEN CREATIVE INDUSTRIES AND TOURISM SERVICES IN BUILDING A NATION BRAND: FORMS, ASYMMETRIES, AND THE MISSING INTERFACE	419
Yusupova Mokhinur Farkhod qizi	
SUVEREN FONDLARDA ESG TAMOIYLLARINI BAHOLASH: MANDAT TURIGA ASOSLANGAN DIFFERENTIAL YONDASHUV	429
Jumaniyazov Inomjon Turayevich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТАРИФНОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ЭЛЕКТРОЭНЕРГЕТИКИ УЗБЕКИСТАНА НА ОСНОВЕ РАСПРЕДЕЛЕНИЯ ЗАТРАТ И ЦЕНОВЫХ СИГНАЛОВ	438
Аллаева Гульчехра Жалгасовна	
BOZOR SHAROITIDA KADRLAR TAYYORLASH TA'LIM TIZIMINI BOSHQARISH JARAYONINI RIVOJLANTIRILISHI	447
Temirova Shalola Erkinovna	
COMPARATIVE DYNAMICS OF AGRICULTURAL SUPPORT AND GREEN TRANSFORMATION: EVIDENCE FROM FOUR COUNTRIES.....	452
Abduraimov Abdunabi	
SOLIQ MEKANIZMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHNING INSTITUTIONAL ASOSLARI	460
To'laganova Feruza Xamidulla qizi	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA BOSHQARUV DARAJASINI MOLIYAVIY NATIJADAN MUSTAQIL BAHOLASH USLUBIYOTI	467
Axmadjanov Abrorbek Akbarjon o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA YOSHLARNING INNOVATSION ISH BILAN BANDLIGINI TARTIBGA SOLISHNING MAZMUNI VA AHAMIYATI.....	473
Bozorova Guljaxon Otabek qizi	



RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA YOSHLARNING INNOVATSION ISH BILAN BANDLIGINI TARTIBGA SOLISHNING MAZMUNI VA AHAMIYATI

Bozorova Guljaxon Otabek qizi

TDIU “Mehnat iqtisodiyoti” kafedrası tayanch doktoranti

E-mail: bozorovaguljaxon@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarning innovatsion ish bilan bandligini tartibga solishning mazmuni va ahamiyati tadqiq etilgan. Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlil qilinib, innovatsion bandlik tushunchasining nazariy-falsafiy, tashkiliy-amaliy va xalqaro nazariy-institutsional darajalari yoritilgan. An'anaviy va innovatsion bandlikning qiyosiy tavsifi keltirilgan hamda raqamli transformatsiya ta'sirida yoshlar innovatsion bandligining shakllanish mexanizmi ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari raqamli texnologiyalarning mehnat bozoriga ikki tomonlama, ya'ni yangi kasblar yaratish va mavjud kasblar mazmunini o'zgartirish orqali ta'sir ko'rsatishini anglatadi.

Kalit so'zlar: raqamli transformatsiya, innovatsion bandlik, yoshlar bandligi, raqamli kompetensiya, mehnat bozori, kasbiy tayyorgarlik.

Abstract. This article examines the essence and significance of regulating youth innovative employment under conditions of digital transformation. Based on an analysis of relevant scientific literature, the theoretical-philosophical, organizational-practical, and international theoretical-institutional levels of the concept of innovative employment are highlighted. A comparative characteristic of traditional and innovative employment is presented, and a mechanism for the formation of youth innovative employment under the influence of digital transformation is developed. The research results indicate that digital technologies have a dual impact on the labor market by creating new professions and simultaneously transforming the content of existing ones.

Key words: digital transformation, innovative employment, youth employment, digital competence, labor market, professional training.

Аннотация. В данной статье исследуются сущность и значение регулирования инновационной занятости молодёжи в условиях цифровой трансформации. На основе анализа научной литературы по теме раскрыты теоретико-философский, организационно-практический и международный теоретико-институциональный уровни концепции инновационной занятости. Представлена сравнительная характеристика традиционной и инновационной занятости, а также разработан механизм формирования инновационной занятости молодёжи под влиянием цифровой трансформации. Результаты исследования показывают, что цифровые технологии оказывают двойственное воздействие на рынок труда, создавая новые профессии и одновременно изменяя содержание существующих.

Ключевые слова: цифровая трансформация, инновационная занятость, занятость молодёжи, цифровая компетентность, рынок труда, профессиональная подготовка.

KIRISH

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va turli sohalarga keng joriy etilishi mehnat bozorida sezilarli o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Raqamli transformatsiya jarayonlari ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish sohalarida mehnat jarayonlarining o'zgarishiga, yangi kasblarning shakllanishiga, mavjud kasblar mazmunining yangilanishiga va zamonaviy ko'nikmalarga bo'lgan talabning ortishiga xizmat qilmoqda.

Ushbu sharoitda an'anaviy kasblar — bank xodimlari, o'qituvchilar, marketologlar, logistlar, muhandislar, savdo va xizmat ko'rsatish vakillari faoliyatida axborot tizimlari hamda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish ko'lamini kengaytirmoqda. Shu sababli innovatsion bandlikni faqat yangi sohaga oid kasblar bilan cheklamay, mavjud mehnat faoliyatining raqamli mazmun bilan boyishini ham hisobga olish zarur. Mazkur jarayon,



ayniqsa, yoshlarning mehnat bozoridagi ishtiroki uchun muhim ahamiyatga ega. Yoshlar yangi texnologiyalarni o'zlashtirish va zamonaviy mehnat shakllariga moslashish imkoniyatiga ega bo'lish bilan birga, mehnat bozori talablarining o'zgarishi jarayonida muayyan kasbiy moslashuv bosqichlarini ham boshdan kechirmoqda. Ularning raqamli kompetensiyalari, kasbiy tayyorgarligi va mehnat bozori talablariga muvofiqligi innovatsion ish bilan bandlikni shakllantirishda asosiy omillardan hisoblanadi.

Shu munosabat bilan raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarning innovatsion ish bilan bandligini shakllantirish, uning mazmuni hamda unga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqotni amalga oshirishdan maqsad ushbu jarayonning nazariy asoslarini o'rganish va uning asosiy xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Mazkur matnni tahrirlash jarayonida sun'iy intellekt imkoniyatlaridan ham foydalanildi. Maqola kirish, adabiyotlar sharhi, metodologiya, natijalar, muhokama va xulosa bo'limlaridan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli transformatsiyaning mehnat bozori hamda bandlikka ta'siri xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan faol o'rganilmoqda. Izlanishlarda raqamli texnologiyalarning mehnat jarayonlariga kirib borishi, yangi kasblarning shakllanishi, mavjud kasblar mazmunining o'zgarishi, ayrim vazifalarning avtomatlashtirilishi hamda zamonaviy bilim va ko'nikmalarga bo'lgan talabning ortishi asosiy yo'nalishlar sifatida namoyon bo'ladi.

G.Vial (2019) raqamli transformatsiyani texnologiyalarning tashkilot faoliyatiga ta'siri natijasida mavjud jarayonlar va qiymat yaratish mexanizmlarining o'zgarishi bilan bog'laydi [1]. M.Castells (1996) esa axborot hamda bilimning iqtisodiy resurs sifatidagi ahamiyati ortishi va raqamli texnologiyalar ta'sirida mehnatni tashkil etishning yangi shakllari yuzaga kelishini ta'kidlaydi [2].

Innovatsiya va bandlik o'rtasidagi bog'liqlik J.Schumpeter (1942) hamda P.Drucker (1993) tadqiqotlarida o'z aksini topgan. J.Schumpeter innovatsiyalarni iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayveri va texnologik yangilanishlar omili sifatida baholagan bo'lsa [3], P.Drucker bilim va malakaga asoslangan mehnat hamda bilim xodimlarining iqtisodiyotdagi rolini asoslab beradi [4]. Inson kapitali nazariyasi doirasida T.Shultz (1961) va G.Bekker (1993) ta'lim, kasbiy tayyorgarlik hamda malakaga kiritilgan investitsiyalar mehnat unumdorligi va xodimlarning iqtisodiy imkoniyatlarini oshirishini ko'rsatadi [5,6]. Bu yondashuv yoshlarning innovatsion bandligida raqamli kompetensiyalar va doimiy malaka oshirishning muhimligini tasdiqlaydi.

D.Acemoglu va P.Restrepo (2019) avtomatlashtirish ayrim vazifalarni almashtirish bilan birga, yangi mehnat faoliyati turlarini shakllantirish orqali yangi ish o'rinlariga talab yaratishini ta'kidlaydi [7]. K.Dengler va B.Matthes (2018) esa turli kasblarda vazifalarning avtomatlashish imkoniyatlarini o'rgangan [8]. Keyingi empirik tadqiqotlarda Li, Yang va Yin (2024) raqamli transformatsiya yuqori malakali xodimlarga bo'lgan talabni oshirishini [9], Y. Han va mualliflar (2024) korxonalarni raqamlashtirish bandlikni kengaytirishi mumkinligini [10], J. You va mualliflar (2024) esa bu ta'sirlarning mamlakatlar kesimidagi xususiyatlarini tahlil qilgan [11].

Xalqaro tashkilotlar ham ushbu omillarga e'tibor qaratmoqda: OECD (2022) raqamlashtirish jarayonida raqamli ko'nikmalar bilan birga muammolarni hal qilish va moslashuvchanlik zarurligini ko'rsatsa [12], Xalqaro mehnat tashkiloti (2021) raqamli platformalar va masofaviy ish kabi yangi bandlik shakllari mehnat munosabatlarini yangilayotganini ta'kidlaydi [13].

O'rganilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tadqiqotlar asosan uch yo'nalishda — ish o'rinlarining transformatsiyasi, yangi ko'nikmalar shakllanishi hamda yangi bandlik shakllarining rivojlanishi bo'yicha olib borilgan. Mazkur matnni tahrirlash jarayonida sun'iy intellekt imkoniyatlaridan ham foydalanildi.

Ayni paytda, mavjud manbalarda raqamli transformatsiyaning miqdoriy ko'rsatkichlariga ko'proq e'tibor qaratilib, mavjud kasblar mazmunining o'zgarishini o'z ichiga oluvchi "innovatsion ish bilan bandlik" tushunchasini alohida kategoriya sifatida baholash masalalari to'liq qamrab olinmagan. Shu munosabat bilan, ushbu tadqiqotda innovatsion ish bilan bandlikni nafaqat yangi va yuqori texnologiyali kasblar, balki raqamli texnologiyalar hamda innovatsion yondashuvlar asosida yuqori qo'shimcha qiymat yaratishga yo'naltirilgan mehnat faoliyati sifatida tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida nazariy-qiyosiy tahlil hamda tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarning innovatsion ish bilan bandligini shakllantirishning nazariy asoslarini aniqlash maqsadida xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar, ilmiy izlanishlar hamda xalqaro tashkilotlar ma'lumotlari tadqiq etildi. Shuningdek, raqamli transformatsiya, an'anaviy va innovatsion bandlik kabi tushunchalar atrofida atroflicha tahlil olib borildi. Mazkur matnni tahrirlash jarayonida sun'iy intellekt imkoniyatlaridan ham foydalanildi. Olingan natijalar asosida raqamli transformatsiya ta'sirida yoshlar innovatsion bandligining shakllanish mexanizmi ishlab chiqildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Innovatsion bandlik tushunchasi iqtisodiy fikr taraqqiyotida uch bosqichli, bir-birini to'ldiruvchi tuzilmaga ega dinamik kategoriya sifatida shakllangan. Birinchi nazariy-falsafiy daraja (Shumpeter, Druker, Kastells) innovatsiyani iqtisodiy taraqqiyotning tub harakatlantiruvchi kuchi sifatida belgilab, bilim va tarmoqli jamiyatning bandlikka umumiy ta'sir mexanizmini ochib beradi. Ikkinchi tashkiliy-amaliy daraja (Degtyarev, Kolosova, Balatskiy va Yekimova) ushbu umumiy tendensiyani konkret tashkiliy shakllar (bulutli ish, tarmoqli tuzilma, yuqori texnologiyali ish o'rinlari doktrinasi) hamda davlat siyosati vositalari orqali milliy kontekstga moslashtiradi. Uchinchi xalqaro nazariy-institutsional daraja (Vivarelli, Bessen, OECD, Powell va Snellman, Asemoglu va Restrepo, Jahon banki, ILO/Eurostat) esa bu jarayonni mikroiqtisodiy mexanizmlardan tortib, bandlik tuzilishining nazariy transformatsiyasi va global statistik standartlashuvga bo'lgan yaxlit ilmiy zanjir sifatida tizimlashtiradi.

Yuqoridagi olimlarning qarashlarini umumlashtirib, innovatsion bandlikni yangi bilimlar, ilg'or texnologiyalar va innovatsiyalarni yaratish hamda joriy etish bilan bog'liq bo'lgan, yuqori malaka, ijodkorlik hamda raqamli kompetensiyalarni talab qiluvchi mehnat faoliyati va ish o'rinlari tizimidir, deb talqin qilish mumkin. Mazkur matnni tahrirlash jarayonida sun'iy intellekt imkoniyatlaridan ham foydalanildi. 1-jadvalda ma'lumotlar asosida an'anaviy va innovatsion bandlikning qiyosiy tavsifi yoritilgan.

1-jadval

An'anaviy bandlik va innovatsion bandlikning qiyosiy tavsifi¹

Mezon	An'anaviy bandlik	Innovatsion bandlik
Asosiy ishlab chiqarish omili	Kapital, yer, jismoniy mehnat	Bilim, intellektual salohiyat, inson kapitali (Druker, 1993)
Ish joyi va tashkiliy tuzilma	Aniq belgilangan jismoniy ish joyi, ierarxik boshqaruv tizimi	Virtual/moslashuvchan makon, tarmoqli (network) tuzilma (Degtyarev, 2017; Kolosova)
Mehnat munosabatlari shakli	Doimiy, to'liq shtatli bandlik, uzoq muddatli mehnat shartnomasi	"Bulutli ish", masofaviy va platformaviy bandlik, moslashuvchan shartnoma shakllari (Degtyarev, 2017; ILO/Eurostat, 2024)
Talab qilinadigan malaka	Kasbiy-texnik, bir martalik ta'lim asosidagi ko'nikmalar	Uzluksiz o'rganish, raqamli kompetensiya, ijodkorlik va moslashuvchanlik (Jahon banki, 2019)
O'zgarish dinamikasi	Barqaror, sekin o'zgaruvchi kasb va vazifalar tarkibi	Tezkor transformatsiya — vazifalarning almashinuvi: eskilari yo'qolishi (displacement), yangilari paydo bo'lishi (reinstatement) (Asemoglu, Restrepo, 2019)
Ish o'rinlari yaratilish manbai	An'anaviy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tarmoqlari	Mahsulot innovatsiyasi, R&D xarajatlari, yuqori texnologiyali yangi tarmoqlar (Vivarelli, Pianta, 2000)
Texnologiyaning bandlikka ta'siri	Texnologiya ko'proq o'rin bosuvchi (substitutsion) rol o'ynaydi	Texnologiya ham o'rin bosuvchi, ham to'ldiruvchi (komplementar) rol o'ynaydi, yangi kasblar yaratadi (Bessen, 2019)
Iqtisodiy asos	Sanoat iqtisodiyoti, moddiy ishlab chiqarish	Bilimga asoslangan iqtisodiyot (knowledge-based economy) (OECD, 1996; Powell, Snellman, 2004)
Ijtimoiy tashkilot shakli	Markazlashgan, ierarxik ijtimoiy tuzilma	Tarmoqli jamiyat (network society), axborotlashgan ijtimoiy tuzilma (Kastells, 1996)
Davlat siyosatidagi o'rni	Bandlikni saqlash va ish o'rinlarini himoya qilishga yo'naltirilgan siyosat	Yuqori texnologiyali ish o'rinlarini maqsadli yaratish doktrinasi (Balatskiy, Yekimova, 2013)
Rivojlanish harakatlantiruvchi kuchi	Mavjud ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish	"Ijodiy vayronagarchilik" — eskisini yo'q qilib, yangisini yaratish (Shumpeter, 1950)
O'lchash va monitoring tizimi	An'anaviy mehnat statistikasi (bandlik/ishsizlik darajasi)	Yangi statistik standartlar — raqamli platforma bandligini o'lchash tizimi (ILO, Eurostat, 2024)

Raqamli transformatsiyaning jadallashuvi mehnat bozorida nafaqat yangi kasb va bandlik shakllarining paydo bo'lishiga, balki mavjud ish o'rinlarining mazmuni, mehnat jarayonlari hamda ularga qo'yiladigan kasbiy talablarning tubdan o'zgarishiga olib kelmoqda. Bir tomondan, takrorlanuvchi va standartlashtirilgan mehnat operatsiyalarining avtomatlashtirilishi ayrim an'anaviy ish o'rinlariga bo'lgan talabning qisqarishiga xizmat qiladi. Ikkinchi tomondan esa, texnologik yangilanish natijasida yangi kasblar va mehnat funksiyalari shakllanmoqda. Ma'lumotlar tahlilchisi (*Data Analyst*), sun'iy intellekt muhandisi (*AI Engineer*), dasturiy ta'minot ishlab chiquvchisi (*Software Developer*), kiberxavfsizlik mutaxassisi (*Cybersecurity Specialist*), UX/UI dizayner va raqamli marketing mutaxassisi kabi kasblar shular jumlasidandir. Biroq raqamli transformatsiyaning natijasi

¹ Tadqiqot jarayonida muallif tomonidan ilmiy adabiyotlar asosida tuzilgan.



faqat yangi kasblarning paydo bo'lishida emas, balki mavjud kasblarning texnologik jihatdan yangilanishida ham namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar mehnatni tashkil etish shakllarini ham diversifikatsiya qilmoqda. Masofaviy ish, frilans va platformaviy bandlik kabi shakllarning kengayishi yoshlar uchun mehnat bozoriga kirishning yangi imkoniyatlarini yaratmoqda. Elektron tijorat, raqamli xizmatlar, kontent yaratish, dasturlash va grafik dizayn kabi faoliyat turlarining rivojlanishi yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda. Mazkur imkoniyatlar mehnat resurslarining hududiy harakatchanligini oshirish bilan birga, xalqaro mehnat bozoriga integratsiyalashuv uchun qulay sharoit yaratadi. Biroq bu bandlik shakllari innovatsion bandlikning yagona ko'rinishi bo'lmay, balki raqamli transformatsiya natijasida yuzaga kelayotgan o'zgarishlarning tarkibiy qismidir.

Ushbu yondashuv yoshlarning innovatsion ish bilan bandligini baholashda nafaqat yangi kasblar va bandlik shakllarini, balki mavjud ish o'rinlarining raqamli transformatsiya ta'sirida qanday o'zgarayotganini, xodimlarning yangi kompetensiyalarni egallash darajasini, texnologiyalardan foydalanish intensivligini hamda yaratilayotgan qo'shilgan qiymatni hisobga olish imkonini beradi. Shu sababli yoshlarning innovatsion ish bilan bandligini tartibga solish mexanizmlari yangi ish o'rinlarini yaratish bilan bir qatorda, yoshlarni qayta tayyorlash, malakasini oshirish, raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish va texnologik o'zgarishlarga moslashishini ta'minlashga yo'naltirilishi lozim. Mazkur matnni tahrirlash jarayonida sun'iy intellekt imkoniyatlaridan ham foydalanildi.

Yuqorida bayon etilgan fikrlarni umumlashtirib, raqamli transformatsiya ta'sirida yoshlar innovatsion bandligining shakllanish jarayonini quyidagi sxema orqali ifodalash mumkin (1-rasm).

I RAQAMLI TRANSFORMATSIIYA	→	II MEHNAT BOZORIGA IKKI TOMONLAMA TA'SIR
Raqamli texnologiyalar rivojlanishi; Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar; Avtomatlashtirish, robototexnika Raqamli platformalar Ishlab chiqarish va xizmat jarayonlarining raqamlashtirilishi		Yangi kasb va bandlik shakllari yaratiladi (Data Analyst, AI Engineer, frilans, platforma bandligi, elektron tijorat, kontent yaratish, grafik dizayn) Mavjud kasblarning (bank xodimi, o'qituvchi va b.) mazmuni raqamlashadi
		↓
IV YOSHLARNING INNOVATSION ISH BILAN BANDLIGI	←	III YANGI KOMPETENSIYA VA QAYTA TAYYORGARLIK EHTIYOJI
Raqamli kompetensiyaga ega yoshlar Raqobatbardoshlik oshadi Mehnat unumdorligi va qo'shilgan qiymat ortadi		An'anaviy kasblar (bank xodimi, marketolog, o'qituvchi va b.) mazmunining o'zgarishi Raqamli ko'nikma va moslashuvchanlik talab etiladi Onlayn ta'lim va malaka oshirish orqali qayta tayyorlanish
↓		
NATIJALAR		
		Mehnat bozori samaradorligi ortadi Yangi ish o'rinlari yaratiladi Raqamli ta'lim va qayta tayyorgarlik tizimi rivojlanadi Yoshlar bandligi va iqtisodiy faolligi oshadi Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jadallashadi Mehnat resurslarining hududiy harakatchanligi va xalqaro integratsiyasi kuchayadi

1-rasm. Raqamli transformatsiya ta'sirida yoshlar innovatsion bandligining shakllanish mexanizmi²

1-rasmda yoshlar innovatsion bandligining shakllanishi to'rt bosqichli, o'zaro bog'liq mexanizm orqali amalga oshishi tasvirlangan. Unga ko'ra, birinchi bosqichda (I) raqamli texnologiyalar — sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (*Big Data*), avtomatlashtirish, robototexnika va raqamli platformalar ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish jarayonlariga joriy etiladi. Bu, o'z navbatida, ikkinchi bosqichda (II) mehnat bozoriga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Bir tomondan, *Data Analyst*, *AI Engineer* kabi yangi kasblar hamda frilans,

2 Tadqiqot jarayonida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



platformaviy bandlik kabi yangi bandlik shakllari yuzaga keladi; ikkinchi tomondan, bank xodimi, o'qituvchi kabi an'anaviy kasblarning mazmuni ham raqamlashadi.

Ushbu ikki tomonlama ta'sir uchinchi bosqichda (III) yoshlardan yangi kompetensiya va qayta tayyorgarlikni talab qiladi. Jumladan, raqamli ko'nikma va moslashuvchanlikni oshirish hamda onlayn ta'lim orqali malaka oshirish zarurati kuchayadi. Aynan shu jarayonlar yakuniy, to'rtinchi bosqichda (IV) yoshlarning innovatsion ish bilan bandligini shakllantiradi. Natijada yoshlar raqamli kompetensiyaga ega bo'lib, ularning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi va mehnat unumdorligi oshadi hamda yaratiladigan qo'shilgan qiymat ortadi.

Mexanizmida keltirilgan yakuniy natijalar shuni ko'rsatadiki, bu jarayon nafaqat mikrodarajadagi (individual xodim) o'zgarishlarni, balki makroiqtisodiy va ijtimoiy darajadagi natijalarni ham keltirib chiqaradi. Mehnat bozori samaradorligining oshishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi, raqamli ta'lim tizimining rivojlanishi, shuningdek, mehnat resurslarining hududiy harakatchanligi va xalqaro integratsiyasining kuchayishi shular jumlasidandir. Shu bois yoshlarning innovatsion ish bilan bandligini faqat yangi, yuqori texnologiyali kasblar bilan emas, balki raqamli transformatsiya ta'sirida mavjud kasblarning ham qanday yangilanayotganini hisobga olgan holda kengroq talqin qilish maqsadga muvofiqdir. Mazkur matnni tahrirlash jarayonida sun'iy intellekt imkoniyatlaridan ham foydalanildi.

Raqamli transformatsiya yoshlarning innovatsion ish bilan bandligiga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatadi: birinchidan, yangi kasblar, yangi mehnat funksiyalari va yangi bandlik shakllarini yuzaga keltiradi; ikkinchidan, mavjud ishlarning mazmuni hamda ularga qo'yiladigan kompetensiyaviy talablarni o'zgartiradi. Shu nuqtayi nazardan, yoshlarning innovatsion ish bilan bandligini faqat onlayn yoki masofaviy mehnat shakllari bilan izohlash yetarli emas. Uni raqamli texnologiyalar va innovatsion yechimlarning mehnat faoliyatiga kirib borishi natijasida yuzaga keladigan yangi, transformatsiyalangan hamda texnologik jihatdan takomillashgan ish faoliyati sifatida kengroq talqin qilish lozim.

Raqamli transformatsiya, ayniqsa, yoshlarning mehnat bozoridagi o'rniga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi yoshlar uchun yangi kasbiy yo'nalishlarni shakllantirish bilan birga, an'anaviy kasblarda faoliyat yurituvchi xodimlardan ham yangi ko'nikmalarni talab qilmoqda. Masalan, bank xodimi, marketolog, o'qituvchi, logistika mutaxassisi, savdo xodimi yoki muhandis faoliyatining mazmuni raqamli texnologiyalar joriy etilishi natijasida sezilarli darajada o'zgarishi mumkin. Demak, innovatsion ish bilan bandlikni faqat yangi yoki yuqori texnologiyali kasblar bilan chegaralash to'g'ri emas. Muhimi, mehnat faoliyatida yangi bilim, texnologiya va raqamli yechimlardan foydalanish orqali mehnat unumdorligi, qo'shilgan qiymat hamda xizmat ko'rsatish sifatini oshirishdir.

Raqamli transformatsiya iqtisodiyotning turli tarmoqlarida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini tubdan o'zgartirib, yangi kasblar, mehnat shakllari hamda ish o'rinlarining paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar, bulutli texnologiyalar va raqamli platformalarning keng qo'llanilishi natijasida mehnat bozorida yuqori malaka hamda innovatsion ko'nikmalarga ega mutaxassislariga bo'lgan talab ortmoqda. Shu sababli raqamli transformatsiya nafaqat innovatsion bandlikning shakllanishiga xizmat qiladi, balki iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlash uchun innovatsion bandlikni rivojlantirishni ham taqozo etadi. Zamonaviy mehnat bozori sharoitida raqamli texnologiyalardan samarali foydalana oladigan va innovatsion faoliyat bilan shug'ullanadigan kadrlarni tayyorlash muhim vazifaga aylangan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli transformatsiyaning jadallashuvi mehnat bozorida nafaqat yangi kasb va bandlik shakllarining paydo bo'lishiga, balki mavjud ish o'rinlarining mazmuni, mehnat jarayonlari hamda ularga qo'yiladigan kasbiy talablarning tubdan o'zgarishiga olib kelmoqda. Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data), avtomatlashtirish, robototexnika va raqamli platformalarning ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish jarayonlariga joriy etilishi natijasida an'anaviy mehnat funksiyalarining bir qismi avtomatlashtirilmoqda, boshqa qismi esa yangi texnologiyalar bilan uyg'unlashgan holda qayta shakllanmoqda.

Shu sababli zamonaviy mehnat bozorida ish bilan band bo'lishning o'zi bilan bir qatorda, xodimning raqamli texnologiyalardan foydalanish, yangi bilimlarni o'zlashtirish va o'zgaruvchan mehnat talablariga moslashish qobiliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi va kundalik ish faoliyatiga shiddat bilan kirib kelayotganligi sababli mehnat bozorida yangi mutaxassislariga ehtiyoj ortib bormoqda. Boshqa tomondan esa an'anaviy kasblarda faoliyat yuritayotgan xodimlardan ham raqamli vositalardan foydalanish hamda texnologik o'zgarishlarga moslashish ko'nikmalari talab etilmoqda. Natijada raqamli kompetensiyalar yoshlarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omillardan biriga aylanmoqda. Mazkur matnni tahrirlash jarayonida sun'iy intellekt imkoniyatlaridan ham foydalanildi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Vial G. Understanding digital transformation: A review and a research agenda // The Journal of Strategic Information Systems. – 2019. – Vol. 28, No. 2. – P. 118–144. – DOI: 10.1016/j.jsis.2019.01.003.
2. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell Publishers, 1996.
3. Schumpeter J.A. Capitalism, Socialism and Democracy. – New York: Harper & Brothers, 1942.
4. Drucker P.F. Post-Capitalist Society. – New York: HarperBusiness, 1993.
5. Schultz T.W. Investment in Human Capital // The American Economic Review. – 1961. – Vol. 51, No. 1. – P. 1–17.
6. Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. – 3rd ed. – Chicago: The University of Chicago Press, 1993.
7. Acemoglu D., Restrepo P. Automation and New Tasks: How Technology Displaces and Reinstates Labor // Journal of Economic Perspectives. – 2019. – Vol. 33, No. 2. – P. 3–30. – DOI: 10.1257/jep.33.2.3.
8. Dengler K., Matthes B. The impacts of digital transformation on the labour market: Substitution potentials of occupations in Germany // Technological Forecasting and Social Change. – 2018. – Vol. 137. – P. 304–316. – DOI: 10.1016/j.techfore.2018.09.024.
9. Li W., Yang X., Yin X. Digital transformation and labor upgrading // Pacific-Basin Finance Journal. – 2024. – Vol. 83. – Article 102280.
10. Han Y., Yang J., Ying L., Niu Y. The impact of corporate digital transformation on labor employment // Finance Research Letters. – 2024. – Vol. 60. – Article 104888. – DOI: 10.1016/j.frl.2023.104888.
11. You J., Xu X., Liao D., Lin C. International comparison of the impact of digital transformation on employment // Journal of Asian Economics. – 2024. – Vol. 95. – Article 101820.
12. OECD. Skills for the Digital Transition: Assessing Recent Trends Using the OECD Survey of Adult Skills. – Paris: OECD Publishing, 2022.
13. International Labour Organization. World Employment and Social Outlook 2021: The role of digital labour platforms in transforming the world of work. – Geneva: International Labour Office, 2021.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
